



Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2025-T1.0-004



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasi Tarmoq malaka ramkasi mazkur sohadagi mutaxassislarning malakasi va bilimlarini baholash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan va bundan tashqari bu asosida kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishda joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchi va xizmatchilarning (qutqaruvchilarning) funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasida Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi – soha mutaxassislarning malaka talablarini aniqlash va xavfsizlik sifatini oshirish; aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi va suv obyektlarida odamlar xavfsizligini ta'minlash sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hisoblanadi.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasi tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish – favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'liqni saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini

kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar kompleksi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar majmui, vositalar hamda usullar tizimi;

FVDTning funksional quyi tizimi – aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarni o'z ichiga olgan quyi tizim;

FVDTning hududiy quyi tizimi – tegishli hududda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o'z ichiga olgan quyi tizim;

fuqaro muhofazasi – harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O'zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar davlat tizimi;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

qutqaruvchi – muayyan dastur bo'yicha qutqaruv ishlariga tayyorlangan va belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

qutqaruv vositalari – qutqaruv ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulot, shu jumladan maxsus aloqa va boshqaruv vositalari, texnika, asbob – uskunalar, aslaha-anjomlar, mol – mulk, qutqaruv

ishlarini bajarish texnologiyasiga doir uslubiy materiallar, videomateriallar, fotomateriallar, elektron hujjatlar, shuningdek elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar bazalari, boshqa vositalar;

qutqaruv ishlari – favqulodda vaziyatlar zonasida odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularga xos bo'lgan xavfli omillar ta'sirini yo'qotish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan harakatlar;

qutqaruv tuzilmasi – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan, asosini maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqaruv vositalari bilan ta'minlangan qutqaruvchilar bo'linmalari tashkil etgan mustaqil tuzilma yoki qutqaruv xizmati tarkibiga kiruvchi tuzilma;

qutqaruv xizmati – faoliyati bo'yicha yagona tizimga birlashtirilgan, asosini professional qutqaruv tuzilmalari tashkil etgan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar (keyingi o'rinlarda – favqulodda vaziyatlar) – muayyan hududda odamlar qurbon bo'lishiga, odamlarning sog'lig'iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar.

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrda "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi 195-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrda "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2020-yil 20-oktabrda "Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 649-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2023-yil 11-avgustda «Favqulodda vaziyat ro'y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanish» ni tashkil etish to'g'risidagi 361-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-maydagi. "112" yagona dispetcherlik xizmati faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi 304-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son Qarori.

Asosiy qisqartmalar.

FV – Favqulodda vaziyat;

FVV – Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

FM – Fuqaro muhofazasi;

FVDT – Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi;

IFUT – 2.1 – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

RKTb – Radiatsion, kimyoviy va tibbiy biologik;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasi – bu aholining hayoti, sog'lig'i va atrof-muhitni tabiiy va texnogen xavflardan himoya qilishga qaratilgan faoliyatlar majmuasidir. U favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularga tayyorgarlik ko'rish, bartaraf etish va oqibatlarini yo'qotish bo'yicha ishlarni o'z ichiga oladi. Soha milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikda muhim rol o'ynaydi.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

P – seksiyasi Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot

O'zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT – 2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	P – seksiyasi Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	84 Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	84.2 Davlat tomonidan umuman jamiyatga xizmatlar ko'rsatish	84.25 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat	84.25.0 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	21331	Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha professional-mutaxassislar
2.	21493	Sanoat va texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi bo'yicha muhandislar
3.	26349	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan psixologlar, b.g.k.
4.	33594	Sanoat va ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi bo'yicha inspektorlari
5.	54110	Qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchilar

3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligi sohasida asosiy tashkilot O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligidir.

Ushbu vazirlik tarkibida quyidagi muassasalar faoliyat yuritadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrda "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 311-son qarori bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi Favqulodda vaziyatlar muammolari va yong'in xavfsizligi ilmiy-tadqiqot instituti Favqulodda vaziyatlar vazirligi ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot instituti (keyingi o'rinlarda – Institut) etib qayta tashkil etildi.

Institut favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va sinov-tadqiqotlar o'tkazishga ixtisoslashtirilgan davlat muassasasi hisoblanadi.

Quyidagilar Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida ilmiy – innovatsion loyihalarni shakllantirish hamda sinov-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

qurilish materiallarining yong'in xavfliligi sinfini aniqlash va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga mo'ljallangan mahsulotlarning xalqaro talablarga muvofiqligini baholash;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning xalqaro standartlarga mos keladigan yuqori samarali yangi texnologiyalarini ishlab chiqish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish uchun davlat tuzilmalari, ilmiy markazlar va xususiy sektor bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshirish, xorijiy ixtisoslashgan tashkilotlar bilan tajriba almashish va texnologik loyihalarda ishtirok etish hamda xorijiy mamlakatlarning ilg'or ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish;

sodir bo'lgan texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar (holatlar)ni o'rganish hamda yong'in-texnik ekspertizasini o'tkazish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi – Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Akademiyada "Yong'in xavfsizligi" va "Texnosfera xavfsizligi" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Akademiyaning "Yong'in xavfsizligi" va "Texnosfera xavfsizligi" mutaxassisliklari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-maydagi 168-son buyrug'i bilan oliy ta'limning klassifikatorlar ro'yxatiga kiritilgan.

Akademiyaga yangi kiritilayotgan ta'lim yo'nalishlari – Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik (tarmoqlar bo'yicha), "Radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza xavfsizligi, Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi, Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi, Favqulodda vaziyatlarda muhandislik muhofazasi", Hayot faoliyati xavfsizligi, Kimyo muhandisligi va Ekologiya va atrof muhit muhofazasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda Davlat va harbiy boshqaruvi, Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi, Yong'in xavfsizligi, Inson va atrof-muhitning radiatsion xavfsizligi, Ekologiya va Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi, Kimyoviy texnologiya magistratura mutaxassisliklari.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi – bugungi kunda Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmalarining yong'in qutqaruv otryadi va yong'in qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi 26 ta toifalari bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil etilib, mazkur kurslarda harbiy xizmatchi va xizmatchilar tayyorgarlikdan o'tkazadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti – Respublika va viloyat miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas'ul mutaxassislari, tumanlar va shaharlar hokimlari hamda ularning o'rinbosarlarini favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi bo'yicha malakasini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrda "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PF – 185-son farmoni asosida respublikamiz aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilishda ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda ilmiy-texnik yondashuvlar asosida samarali profilaktika va davlat nazoratining yangi mexanizmlarini yo'lga qo'yish hamda sohaga zamonaviy raqamli yechimlarni joriy etish bo'yicha milliy tajribani yaratish ishlari ko'zda tutilmoqda.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish borasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

hududlarda favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish va oqibatlarini kamaytirish faoliyatini ustuvor vazifa sifatida qabul qilish orqali mahallalar darajasida keng qamrovli profilaktika mexanizmlarini yaratish va samarali tatbiq qilish;

energetika, yirik ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko'rsatish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfni boshqarish, texnogen avariylarni o'z vaqtida bartaraf etishning yangi standart hamda metodikalarini ishlab chiqish va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida harakatlanish amaliyotida yo'lga qo'yish;

favqulodda vaziyatlar yo'nalishida davlat nazorati shakllarining talablari hamda me'yorlarini zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini transformatsiya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini belgilash;

favqulodda vaziyatlar xavfini bartaraf etish sohasiga sun'iy intellekt, robototexnika va zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mazkur holatlarning oldini olishga mas'ul idora va tashkilotlarning axborot tizimlarini yagona texnologik platformaga birlashtirish;

barcha bo'g'indagi favqulodda vaziyatlar organlari uchun kadrlar va rahbarlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha dual ta'limga asoslangan yaxlit, uzluksiz o'quv tizimini yo'lga qo'yish, mazkur jarayonga o'qitishning ilg'or pedagogik usullarini tatbiq etish;

favqulodda vaziyatlarning monitoringi va ularni prognozlash, shuningdek, aholi va hududlarni tabiiy ofatlar, texnogen avariylar va yong'inlar xavfidan muhofaza qilish sohasida manzilli ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda rivojlantiriladi:

inson qadrini ta'minlash (inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi);

profilaktik tadbirlarning ustuvorligi;

oshkoralik va shaffoflik;

hamjihatlikda samarali harakatlanish;

sansalorlik va ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslik.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi manfaatlar:

favqulodda vaziyatlardan aholi hayoti, sog'lig'i va moddiy boyliklarining ishonchli muhofaza qilinishi, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda zararni qoplash tartibi mavjudligi;

favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganligi yoki ro'y berganligi haqida aholining xabardor bo'lishi, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatlarining mavjudligi;

favqulodda vaziyatlar xavfi monitoringi va prognozlash tizimida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatidan va ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

sohaga oid qonunchilik hujjatlari va standartlar buzilishining oldini olish, xavf – xatarlarni ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilish, ta'sirchan davlat nazoratini o'rnatish;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda davlat va jamiyat o'rtasida uzviy hamkorlikni mustahkamlash, nodavlat va notijorat tashkilotlar hamda ko'ngillilarning ishtirokini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

“Favqulodda vaziyatdan muhofazalangan mahalla” tamoyili asosida favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlari natijadorligini oshirish bo'yicha “mahallabay” kompleks profilaktika tadbirlarini amalga oshirish;

kun sayin rivojlanayotgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish industriyasini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha yangicha yondashuvlarning, shuningdek, ularda ro'y berishi mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etishning zamonaviy texnika va texnologiyalarini joriy etish;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida dual ta'limga asoslangan o'rta bo'g'in va yuqori malakali professional kadrlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini hamda ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha yaxlit tizimni yo'lga qo'yish;

aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash samaradorligini oshirish;

favqulodda vaziyatlar tahdidining oldini olish, bartaraf etish, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida ilm-fan, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlikka asoslangan innovatsion ishlab chiqarish zanjirini yo'lga qo'yish;

favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozi, shuningdek, favqulodda vaziyatlar xavfini bartaraf etishda kuch va vositalarni boshqarish, muvofiqlashtirish hamda ularning faoliyatini raqamlashtirish sohasiga sun'iy intellekt, robototexnika va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish;

energetika, transport, hayot maromini ta'minlovchi va boshqa muhim iqtisodiyot obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfni boshqarish hamda texnogen avariylarni bartaraf etish;

favqulodda vaziyatlar bo'linmalarining takrorlanuvchi funksiyalarini maqbullashtirish, kuch va vositalar boshqaruvini muvofiqlashtirish.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida dual ta'limga asoslangan o'rta bo'g'in va yuqori malakali professional kadrlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini hamda ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini

oshirish bo'yicha yaxlit tizimni yo'lga qo'yishda quyidagi mexanizmlar ko'zda tutiladi:

sohada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yaxlit tizimini yo'lga qo'yish maqsadida sohaviy o'quv muassasalari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish;

o'quv jarayonini dual ta'lim tizimida tashkil etish, simulyatsiya, imitatsiya va virtual laboratoriyalar (poligon)ni tashkil etish orqali nazariya va amaliyotning uyg'unligini ta'minlash;

ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion o'qitish texnologiyalarini keng tatbiq etish, shu jumladan, masofaviy o'qitish platformasini joriy etish;

ta'lim muassasalariga yuqori malakali professor-o'qituvchilar, shuningdek, ta'lim jarayoniga xorijiy ta'lim, ilmiy-amaliy va ilmiy-tadqiqot muassasalari mutaxassisleri va ekspertlarini jalb qilish;

ilg'or xorijiy tendensiyalarni hisobga olgan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ko'rgazmali va interfaol o'quv-uslubiy bazani shakllantirish;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish;

ta'lim muassasalari va yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida keng qamrovli hamkorlik aloqalarini o'rnatish, kursant va tinglovchilarni o'qishga hamda professor – o'qituvchilarni tajriba almashish va malaka oshirish kurslariga yuborish;

iste'dodli, yuqori ko'rsatkichlarga erishgan, o'quv dasturlarini a'lo baholarga o'zlashtirayotgan kursantlar uchun stipendiyalar ta'sis etish, professor-o'qituvchilarga qonunchilik hujjatlariga muvofiq ustamalar belgilash;

favqulodda vaziyatlar idoralarida uzluksiz o'quv-karyera hamda ustoz-shogird an'analariga ko'ra murabbiy-kurator tizimlarini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PF – 185-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini zamon talablari asosida yanada takomillashtirish ishlari ko'zda tutilmoqda.

Xususan, mahallalarda samarali texnik profilaktika tadbirlarini yo'lga qo'yish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligiga aholi turar joylarida is gazidan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi chaqnashi kabi noxush holatlarning oldini olish uchun aholi xonadonlari va xizmat ko'rsatish obyektlaridagi gaz plitalari, isitish qozonlari, dudburonlar (pech va mo'rikonlar), shuningdek ventilyatsiya tizimlariga shartnoma asosida pulli texnik xizmat ko'rsatish vakolatini berish nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, mazkur xizmatlarni ko'rsatishda yetarli darajadagi bilim va amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida jalb etish huquqini berish belgilanadi.

Quyidagilar "Mahalla muhofazasi" loyihasining ustuvor vazifalari etib belgilandi:

a) mahallalarda favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan texnik-profilaktik tadbirlarni amalga oshirish hamda aholi xonadonlarida yong'in, is gazi va chaqnash kabi baxtsiz hodisalar kelib chiqishining oldini olish;

b) elektr energiyasi, tabiiy gaz va muqobil yoqilg'i turlaridan hamda isitish pechlaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishini tashkil etish;

v) elektr energiyasining behuda sarflanishi hamda gaz va elektr tarmoqlariga xavfsizlik talablariga zid ravishda ulanishlarning oldini olish, shartnoma asosida uy-joy fondida shamollatish kanallari va dudburonlar sozligini ta'minlash, olovdan himoya qilish va pech-mo'rikon ishlarini bajarish, elektr va gaz jihozlariga, shuningdek, yong'inga qarshi himoya tizimlari va vositalariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash;

g) olovdan himoya qilish ishlarini bajarish, yong'in o'chirishning birlamchi vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish;

d) aholining barcha qatlamlari o'rtasida hayot faoliyati xavfsizligi sohasida targ'ibot-tashviqot ishlarini o'tkazish, sohaga oid maxsus adabiyot hamda targ'ibot materiallarini tayyorlash va tarqatish.

Aholida favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik madaniyatini yanada yuksaltirish hamda volontyorlik harakatini keng ommalashtirish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda bolalar va yoshlarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish, hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga uzluksiz tayyorlash bo'yicha, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha ta'lim tashkilotlarining tarbiya-o'quv jarayoniga quyidagi yo'nalishlarni joriy etish nazarda tutiladi:

a) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda shaxsiy xavfsizlik kompetensiyalarini bolalikdan shakllantirishda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi doirasida xavfsiz harakatlanish bo'yicha ilk ko'nikmalarni muammoli-vaziyatli o'yinlar va interfaol mashg'ulotlar orqali shakllantirishni yo'lga qo'yish;

b) 2026/2027 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbiy ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarida "Hayot faoliyati xavfsizligi" mavzularida o'quv-amaliy (taktik) mashqlar o'tkazilishini yo'lga qo'yish.

v) har yili ikki marotaba (bahor va qish mavsumlaridan oldin) ish bilan band bo'lmagan aholi qatlami, inklyuzivlik tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslar bilan mahalla fuqarolari yig'ini vakillari hamkorligida favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha birlamchi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-mashq tadbirlarini o'tkazish;

g) 2026-yildan boshlab har yili mulkchilik shaklidan qat'i nazar, bitta binoda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan hamda jamoalarida ishchi va xodimlari soni jami 50 nafar va undan yuqori bo'lgan tashkilot va muassasalarda favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha shartnoma asosida o'quv-amaliy o'qitishlar o'tkazib borish tizimini yo'lga qo'yish va o'qitishning yagona reyestriga kiritish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari:

aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi, shuningdek, o'z vakolatlari doirasida seysmik xavfsizlikni ta'minlash, suv obyektlarida fuqarolarning cho'kib ketishi bilan bog'liq hodisalarning oldini olish, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu borada mavjud kuch va vositalarning doimiy shayligini ta'minlash;

ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarda, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, shuningdek, daryo o'zanlarini tozalash, qirg'oqlarini mustahkamlash va muhandislik-himoya tadbirlarini bajarish;

respublikada fuqaro muhofazasining tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyatlar ro'y bergani haqida aholini o'z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilishni tashkil etish;

yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, bu bo'yicha belgilangan talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar organlari faoliyati yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Vazirlik o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi, shuningdek, o'z vakolatlari doirasida seysmik xavfsizlikni ta'minlash, suv obyektlarida fuqarolarning cho'kib ketishi bilan bog'liq hodisalarning oldini olish, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

faoliyat yo'nalishiga oid sohalarni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha dasturlar, strategiyalar, konsepsiyalar, kompleks chora-tadbirlar va rejalar ishlab chiqadi hamda amalga oshirilishini ta'minlash;

tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, shuningdek, o'z vakolatlari doirasida seysmik xavfsizlikni va yong'in xavfsizligini ta'minlash, suv obyektlarida fuqarolarning cho'kib ketishi bilan bog'liq hodisalarning oldini olish, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot obyektlari faoliyatining barqarorligini oshirish sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion siyosat yuritishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi hamda maqsadli ilmiy-texnik dasturlarni tasdiqlash;

mahallalarda favqulodda vaziyatlarning ro'y berish xavfini ilmiy-texnik yondashuv asosida joyiga chiqqan holda o'rganadi, xavf darajasiga ko'ra indikatorlarni belgilash;

mahallalardagi uy-joy fondi va nazorat obyektlarida texnik-profilaktik hamda boshqa oldini olish choralarini muvofiqlashtiradi, natijadorligi bo'yicha ta'sirchan davlat nazoratini o'rnatish;

aholining barcha qatlamlari, shu jumladan, ijtimoiy, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari jamoalari bilan fuqaro muhofazasi sohasida o'quv-amaliy va kompleks targ'ibot-profilaktika tadbirlarini tizimli ravishda o'tkazish;

respublika hududida tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish harakatlari, shuningdek, fuqaro muhofazasi rejaları loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini boshqarish hamda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash;

toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o'tkazib yuborishni ta'minlash, qor ko'chishi va yer ko'chkisi hodisalari xavfini kamaytirish hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha hukumat komissiyalari ishini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlaydi, ularning qarorlari ijrosini muvofiqlashtirish;

yong'in va qutqaruv texnikalari, asbob-anjomlari, xabar berish vositalari bo'yicha davlat buyurtmachisi funksiyasini bajarish, shuningdek, xususiy sektorni jalb qilgan holda ularni yaratish va respublikada ishlab chiqarishni tashkil etish;

aholini va rahbarlar tarkibini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlash doirasida profilaktika tadbirlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

portlash va yong'in chiqishi xavfi yuqori bo'lgan zonalar (obyektlar), shuningdek, odamlarni evakuatsiya qilishni yoki ko'chirishni talab qiladigan xavf yuqori bo'lgan hududlar davlat kadastrini yuritish;

tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning xavf darajasini va ularning moddiy, shu jumladan, atrof-muhitga zarari miqdorini aniqlash uslublarini ishlab chiqishni tashkil etish;

qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash, ularni moddiy-texnik ta'minlash tartibi va me'yorlarini ishlab chiqish hamda o'rnatilgan tartibda tasdiqlash;

favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi va rivojlanish xavfini kompleks monitoring hamda prognoz qilishni ta'minlash, seysmik kuzatuvlarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi hududida, transchegaraviy hududlarda, shuningdek, tabiiy va texnogen xavf yuqori bo'lgan hududlarda seysmologik va seysmometrik kuzatuvlarni tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish hamda prognozlash ma'lumotlarini, shuningdek, ularning yuzaga kelishi va oqibatlari to'g'risida belgilangan tartibda avtomatlashtirilgan axborot almashinuvini ta'minlashni tashkil qilish funksiyalarini bajaradi.

Favqulodda vaziyatlarning erta oldini olish va bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu borada mavjud kuch va vositalarning doimiy shayligini ta'minlash sohasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini tashkil etadi, ushbu sohada vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

odamlar hayoti va sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zarar yetishining oldini olish, favqulodda vaziyatlarda hayot faoliyatini ta'minlovchi obyektlarning barqarorligini oshirish hamda jiddiy moddiy talafotlarning, shu jumladan, odamlarning hayoti va faoliyati sharoitlari buzilishining oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini tashkil etadi;

mahallalarda favqulodda vaziyatlardan texnik profilaktikasini hamda aholi xonadonlarida yong'inlar va favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilishni ta'minlaydi;

tabiiy ofatlar va texnogen avariylarni monitoring qilish hamda prognozlash tizimini rivojlantiradi va faoliyatini muvofiqlashtiradi;

faoliyat yo'nalishiga oid sohalarda fan va texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

hayotiy faoliyatni ta'minlovchi obyektlar va tizimlarning barqaror ishlashini, tahdidlar va ularning kelib chiqish sabablarini oldindan aniqlash, bartaraf etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqilishini tashkil etadi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

yong'in xavfsizligi talablaridan asosli ravishda chetga chiqilgan yoki bunday talablar mavjud bo'lmagan taqdirda, binolar-inshootlarni va boshqa obyektlarni qurish, kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga doir loyiha hujjatlarining yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishiga taalluqli qismini ko'rib chiqadi;

shaharsozlik hujjatlari va obyektlar qurilish loyihalarini fuqaro muhofazasi, tabiiy hamda texnogen favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish talablariga rioya qilish bo'yicha davlat ekspertizasidan o'tkazishda ishtirok etadi;

qurilishlar va qurilish-montaj ishlari jarayonida loyiha hujjatlarida ko'zda tutilgan hamda shaharsozlik normalari va qoidalarida belgilangan yong'inga qarshi talablarga amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yong'in avtomatikasi tizimlarini (avtomatik yong'in signalizatsiyasi, yong'indan xabardor va evakuatsiya qilish, tutunga qarshi shamollatish tizimlari hamda avtomatik yong'in o'chirish qurilmalari va boshqa avtomatik yong'inga qarshi himoya texnik uskunalari) montaj qilish, shuningdek, qurilish konstruksiyasi va materiallarining olovbardoshlik darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar sifatini tekshiradi va qabul qiladi;

obyektlarda, shu jumladan, o'ta muhim davlat ahamiyatiga molik yoki yong'in va portlash xavfi yuqori bo'lgan tashkilotlar, bozorlar, yirik savdo majmualarida shartnoma asosida belgilangan tartibda yong'indan saqlash ishlarini amalga oshiradi;

aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi va fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ustidan, shuningdek, suv obyektlarida fuqarolarning cho'kib ketishi bilan bog'liq hodisalarning oldini olish, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini olib boradi, o'z vakolati doirasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuritilishini va tergovga qadar tekshiruvlarni amalga oshiradi;

vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa tashkilotlarga faoliyat yo'nalishiga oid sohalarda profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha takliflar kiritadi;

ta'lim tashkilotlarida hayot faoliyati xavfsizligi, fuqaro muhofazasi hamda qutqaruvchilarni maxsus tayyorlash bo'yicha o'quv (ta'lim va tarbiya) dasturlarini ko'rib chiqadi va kelishadi;

avariyalar, halokatlar, yong'inlar va tabiiy ofatlarning o'z vaqtida oldini olish va oqibatlarini yumshatishni ta'minlaydi, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda vakolati doirasida ishtirok etadi;

faoliyat yo'nalishiga oid sohalarda aholini to'g'ri harakat qilishga o'rgatadi, vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning rahbar xodimlari, mutaxassisleri va tuzilmalari shaxsiy tarkibini tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi hamda ularning malakasini oshiradi, shuningdek, tegishli o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va kelishadi;

atrof tabiiy muhitni favqulodda vaziyatlardan va yong'inlardan asrashga doir chora-tadbirlarni belgilaydi va ularning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

yong'in-texnik mahsulotlar, moddalar, materiallar va jihozlarni yong'in xavfliligi bo'yicha sinash va tekshirish ishlarini amalga oshiradi va soha yo'nalishida sertifikatlashtirishni, shuningdek, radiatsiyaviy razvedka asbob-anjomlari va shaxsiy

himoya vositalarining texnik holatini tekshirishni belgilangan tartibda amalga oshiradi;

aholining radiatsiyaviy, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofazasini tashkil etish, fuqaro muhofazasi muhandislik-himoya inshootlari va boshqa fuqaro muhofazasi obyektlarining tayyorligini ta'minlashni hamda ularning barpo etilishini nazorat qiladi;

FVDT kuch va vositalarining hamkorlikda harakat qilishini takomillashtirish, qutqaruv xizmatlari, fuqaro muhofazasi va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorlash va tayyorgarlik darajasini baholash maqsadida aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv mashqlari va mashg'ulotlari o'tkazilishini tashkil etadi;

favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda va ro'y berganda insonlarning hayotini asrab qolish hamda sog'lig'ini saqlashga doir kompleks yordam ko'rsatilishi, shuningdek, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar amalga oshirilishini ta'minlaydi;

qutqaruv xizmatlari (tuzilmalari), davlat, idoraviy va ko'ngilli yong'indan saqlash bo'linmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi kuchlari, qo'shinlari va tuzilmalari hisobini yuritadi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, insonlar hayoti, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish tadbirlarini tashkil etadi, Vazirlik va uning tuzilmalari kuch va vositalarining doimiy shayligini ta'minlaydi;

qutqaruv ishlariga jalb etiladigan qutqaruv xizmatlari va tuzilmalari tomonidan kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni o'tkazishni tashkil etadi hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

favqulodda vaziyatlar zonasidagi atrof-muhitning radioaktiv, kimyoviy, zaharlovchi moddalar va biologik (bakteriologik) vositalar bilan ifloslanishini nazorat qilishda ishtirok etadi;

favqulodda vaziyatlarning ta'siriga uchragan joylarda va aholi punktlarida shaharsozlik faoliyatini alohida tartibga solishda ishtirok etadi, vazirlik va idoralar bilan birgalikda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalar tarkibi, joylashuvi va jihozlanish tartibini belgilaydi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan foydalanish va qayta tiklash tartibini belgilaydi va bu boradagi ishlarni muvofiqlashtiradi;

favqulodda vaziyatlarda jabrlangan aholini birlamchi zarur mahsulotlar bilan ta'minlash, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va yong'inlarni o'chirishga jalb qilinadigan maxsus tuzilmalarni jihozlash uchun moddiy boyliklarning idoraviy zaxirasini yaratadi;

vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning halokatlardan jabrlangan yoki ularni bartaraf etishda ishtirok etgan fuqarolarni ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tibbiy jihatdan muhofaza qilish bo'yicha faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qiladi va muvofiqlashtiradi;

tegishli vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan aholiga insonparvarlik yordamini shakllantirish hamda yetkazib berishni belgilangan tartibda tashkil etadi, aholini evakuatsiya qilishda hamda vaqtincha joylashtirishda ishtirok etadi;

keng qamrovli avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar amalga oshirilishini talab etadigan yirik halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarda respublikaning butun hududida yoki ayrim joylarida favqulodda holatning alohida huquqiy rejimini joriy etish to'g'risida vakolati doirasida takliflar kiritadi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarda, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, shuningdek, daryo o'zanlarini tozalash, qirg'oqlarini mustahkamlash va muhandislik-himoya tadbirlarini bajarish sohasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarda, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarida muhandislik muhofazasi va qurilish-tiklash ishlarini bajarishda ishtirok etadi;

ijtimoiy-iqtisodiy muammolari ko'p bo'lgan hududlarning qiyofasi va infratuzilmasini yaxshilash dasturlari doirasida qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish bo'yicha pudrat ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

Vazirlikning qurilish va ta'mirlash obyektlari bo'yicha buyurtmachi vazifasini bajaradi hamda loyiha qarorlari samaradorligini ta'minlaydi;

respublikada fuqaro muhofazasining tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta'minlash, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyatlar ro'y bergani haqida aholini o'z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilishni tashkil etish sohasida:

fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, harbiylashtirilgan tuzilmalar va bo'linmalar, shuningdek, qonunchilik talablari asosida tashkil etilgan boshqa davlat boshqaruvi organlarining hamkorligini tashkil etadi;

fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining jangovar va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlaydi hamda ularning boshqaruvini tashkil etadi;

boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlari tashkil etilishi, ularni rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turilishini ta'minlaydi;

aholini va tashkilotlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlashni tashkil etadi;

iqtisodiyot tarmoqlarining favqulodda vaziyatlar sharoitida barqarorligini oshirish yuzasidan kompleks tadbirlar o'tkazilishini muvofiqlashtiradi, fuqaro muhofazasi tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

fuqaro muhofazasi himoya inshootlarining hisobini yuritadi, ularning shayligi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi hamda aholini muhofazalanishga tayyorlash tadbirlarini tashkil qiladi;

favqulodda vaziyatlar ro'y berish xavfi tug'ilganda yoki yuzaga kelganda aholiga xabar berish va axborot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi yaratilishini muvofiqlashtiradi va uni boshqaradi;

fuqaro muhofazasi hamda FVDtning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi va axborot ta'minoti, xabar berish tizimining doimiy shayligini tashkil etadi va ta'minlaydi;

favqulodda vaziyatlar ro'y berish xavfi tug'ilganda yoki yuzaga kelganda xabar berish tizimlari hamda barcha aloqa va ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda aholiga xabar berish hamda ma'lumot yetkazishni tashkil etadi;

faoliyat yo'nalishiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etadi, ish jarayonlarini raqamlashtiradi, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtiradi;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida aholini tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilishni va ulardan keng foydalanishni ta'minlaydi.

yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, bu bo'yicha belgilangan talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish sohasida:

vazirlik, idora va boshqa tashkilotlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilishda belgilangan xavfsizlik talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

respublika hududiga olib kirilgan, obyektlarda saqlanayotgan hamda respublika hududi orqali tranzit tashilayotgan yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalar (mahsulotlar) to'g'risida yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasini yaratadi va doimiy monitoringini yuritib boradi;

yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilishda yuzaga keladigan texnogen avariya va favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shuningdek, oqibatlarini bartaraf etish ishlarini muvofiqlashtiradi;

yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish bo'yicha manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar organlari faoliyati yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

favqulodda vaziyatlar organlari faoliyati yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratadi, Vazirlik xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlaydi;

qutqaruvchilarni qutqaruv ishi, yong'inlarning oldini olish va o'chirish sohasida boshlang'ich tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni tashkil etadi va ta'minlaydi;

favqulodda vaziyatlar organlari faoliyati yo'nalishi bo'yicha xodimlarni xorijiy ta'lim muassasalarida o'qitishni amalga oshiradi;

aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yo'nalishida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini amalga oshiradi;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga mahalliy hamda xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining malakali mutaxassislarini jalb etadi;

kasbiy va oliy ta'lim tashkilotlariga Vazirlik faoliyati yo'nalishiga oid soha mutaxassislarini tayyorlashda tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatadi;

tashkilot hamda muassasalarda mehnat qiladigan ishchi va xodimlarni favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha shartnoma asosida o'quv-amaliy o'qitishlarni tashkil qiladi.


Favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish doirasida 101 – Yong'in-qutqaruv xizmati dan tashqari, respublikada favqulodda va kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatlarda bir martalik murojaat uchun yagona tezkor xizmat raqami — 112 joriy etilgan.

“112” qisqa raqami orqali fuqarolar favqulodda vaziyatlar, hodisalar va shoshilinch vaziyatlarda yordam chaqirishni amalga oshirishi, shuningdek, yagona dispetcherlik xizmati orqali shoshilinch yordam xizmatlari chaqiruvlarini qabul qilish, avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash hamda zudlik bilan tegishli xizmatlarni muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Mazkur tizim Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa shoshilinch xizmatlar vakolatli tuzilmalarining yagona ma'lumot almashish tarmog'iga birlashtirilgan holda respublika bo'ylab faoliyat yuritadi.


101 raqami esa yong'in holatlarini tezkor xabar qilish va yong'in-qutqaruv xizmatini chaqirish uchun mo'ljallangan bo'lib, u uzluksiz (24/7) rejimda ishlaydi. Aholi punktlarining telefon tarmoqlarida ushbu raqam orqali yong'inlar to'g'risidagi xabarlar qabul qilinadi.

Yong'in xavfsizligi sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 24-iyundagi “Yong'in xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

**Respublika hududida 2023-2024-yilning 12 oyida sodir bo'lgan
favqulodda vaziyatlar
TAHLILI**



**2025-yilning 3 oyi davomida sodir bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli
favqulodda vaziyatlarning ulushlari kesimida taqqoslash diagrammasi**



Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida yangi kasblar paydo bo'lmoqda va ularga bo'lgan ehtiyojlar ortib bormoqda, jumladan:

Favqulodda vaziyatlar davlat nazorati inspektori – Bu kasb sohasidagi mutaxassislar Tashkilotlar, korxonalar va muassasalarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish qoidalari va normalarining bajarilishini kuzatadi. Joylardagi xavfli holatlarni va xavf-xatarlarni o'rganish, ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha nazorat ishlarini doimiy olib boradi. Aholi va xodimlar o'rtasida favqulodda vaziyatlardan himoyalalanish choralari bo'yicha profilaktika, tushuntirish va targ'ibot

ishlarini olib boradi. Nazorat jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish va ularni amalga oshirishda ishtirok etadi.

Favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchi-alloqachi – Bu kasb mutaxassislari Qutqaruv ishlari olib borilayotgan joylarda barqaror va uzluksiz aloqa ta'minlaydi. Aloqa qurilmalarini doimiy holatda tekshirish, texnik nosozliklarni bartaraf etadi. Ma'lumotlarni aniq va tez uzatish, qabul qilingan xabarlarni tegishli tashkilotlarga yetkazadi. Qutqaruvchilarni aloqa vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha tayyorlaydi;

Favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchi-alpinist – Bu kasb mutaxassislari Tog'li hududlarda yuz bergan favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni qutqarish. Qutqaruv jarayonida jabrlanganlarni xavfsizlik bilan pastga tushirish va tegishli joyga olib chiqish hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish evakuatsiya qilish. Tog'-sharoitlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va qutqaruvchilar orasida xavfsiz muhitni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, global xavfsizlik va xavf-xatarlarning oshishi, shuningdek texnik taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida ushbu sohadagi yangi kasblarga talab ortib bormoqda. Shu bilan birga, mutaxassislarning malaka va bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish ham muhim hisoblanadi.

Kasbga bo'lgan tayyorgarlik va malaka oshirish – Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasidagi yangi kasblar maxsus ta'lim va malaka oshirish kurslarini talab qiladi. Shu bilan birga, mutaxassislar uchun davriy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida muntazam ishtirok etish muhim ahamiyatga ega.

Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar – Favqulodda vaziyatlarni boshqarish va xavfsizlik sohasidagi yangi kasblar ilg'or texnologiyalar (masalan, qutqaruv robotlari, dronlar, aqlli tizimlar) bilan uzviy ishlay olishi kerak. Shu bilan birga, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarga yo'naltirilgan mutaxassislar uchun ehtiyoj ham ortib bormoqda.

Kasbiy sertifikatatsiya va litsenziyalash – Yangi kasblarning rivojlanishi uchun ularning maxsus ta'lim va sertifikatlashtirish mexanizmlari yaratilishi kerak. Mobil qutqaruv tizimlari, robototexnika, axborot xavfsizligi va ekologiya sohasidagi mutaxassislar uchun o'z sertifikatlashuv tizimlari joriy etish talab etiladi;

Mashg'ulotlar va amaliyotlar – Qo'shma amaliyotlar, xalqaro hamkorliklar va o'quv mashg'ulotlariga bo'lgan ehtiyoj ham ortishi mumkin. Yangi kasb egalari uchun muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun ularning tizimli o'qitish va tajriba oltirishlari zarur.

Jamiyat va iqtisodiy ta'sirlar: Qutqaruv sohasidagi yangi kasblarning jamiyatga ta'siri – Bu kasblarning rivojlanishi aholi orasida favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va xavfsizlikka bo'lgan ahamiyatni oshiradi, jamiyatning xavfsizlik va xavflarni oldini olishga oid hissasini mustahkamlaydi.

Iqtisodiy va moliyaviy ta'sir – Yangi kasblar bilan bog'liq ish o'rinlari yaratilishi, yangi xizmatlar va texnikaga talabning ortgani bilan iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Ushbu sohada tadbirkorlik va investitsiya imkoniyatlari ham kengayishi mumkin;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi milliy malakalar tizimini rivojlantirish bo'yicha ta'lim muassasalari mavjudligi va ta'limning ish beruvchi talablariga integratsiyalashuvi haqidagi ishlarni keltirish uchun, O'zbekistondagi mavjud holatni ko'rib chiqish mumkin. Bunday yo'nalishlar muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va sohaning rivojini ta'minlashga qaratilgan amaliy qarorlar berishga imkon beradi.

Ta'lim muassasalari mavjudligi: Maxsus ta'lim muassasalari – Favqulodda vaziyatlar sohasidagi ta'lim va tayyorgarlik ishlari uchun maxsus ta'lim muassasalari tashkil etilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi va unga qarashli ta'lim markazlari kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash;

Oliy ta'lim muassasalari – ba'zi oliygohlar, masalan, Toshkent davlat texnika universiteti va favqulodda vaziyatlarga oid fanlar va mutaxassisliklar bo'yicha ta'limni taklif qiladi. Bu yerda talabalar faqat texnik ishlatish bo'yicha bilimlar olishmay, balki favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish tartiblari va xavfsizlikka oid boshqa sohalaridagi bilimlarni ham olishadi.

Ta'limning ish beruvchi talablariga integratsiyalashuvi:

Ta'lim dasturlarining ish beruvchi talablariga moslashtirilishi – Ta'lim muassasalari ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi. Bu ish beruvchilarning talablari va ehtiyojlarini aniqlash, oliy ta'lim kurslari va treninglarini ularga moslashtirishga olib keladi. Masalan, fakultetlarda talabalarga favqulodda vaziyatlarga javob berish, qutqaruv ishlarini tashkil etish, yordam berish sohasida amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi;

Jahon tajribasini tatbiq qilish – Favqulodda vaziyatlar sohasidagi tajriba va ish beruvchi talablariga integratsiyalashuvi uchun xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy tizimga joriy qilish muhimdir. Buni amalga oshirish uchun, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yangilangan tahlillar, usullar va treninglar ko'rsatish mumkin;

Kasbiy standartlar va sertifikatlash – Ta'lim muassasalari, ish beruvchilarning talablariga mos ravishda, malaka oshirish va tayyorgarlik kurslarini tashkil qiladi. Bu ham kasbiy standartlarga asoslanib, amaliyot va testlar orqali mutaxassislardan professional sertifikatlash talab qiladi. Bu yo'nalishda, xavfsizlik, qutqaruv va tadbirlar bo'yicha o'z kasbiy sertifikatlash tizimini ishlab chiqish muhim;

Innovatsiyalar va texnologiyalarga yo'naltirilgan ta'lim – Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar (masalan, robototexnika, dronlar, sun'iy intellekt)ni tahlil qilish, ularni ta'lim jarayoniga kiritish va ish beruvchilarning talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash muhimdir. Bu yo'nalishda o'quv dasturlari yangilanishi va texnologiyalardan foydalanish amaliyotida mutaxassislarni tayyorlashga asoslangan ta'lim modellarini yaratish kerak.

Maqsadlar va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari:

Hukumat va ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash – Ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, o’quv dasturlarini ish beruvchilarning talablariga moslashtirish, yangi ish o’rinlari va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish muhim;

Xalqaro tajriba va hamkorlikni jalb qilish – Yangi ilmiy-amaliy tadqiqotlar, xalqaro loyihalar va innovatsiyalardan foydalanish, o’quv dasturlariga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalashga xizmat qiladi;

Ta’limning o’quv muhiti va resurslarini kuchaytirish – Zamonaviy o’quv markazlarini yaratish, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun moliyaviy va texnologik resurslardan foydalanish lozim.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro’yxati

Mashg’ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro’yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1.	21331010	Radiatsion, kimyoviy va tibbiy biologik muhofazasi guruhi boshlig’i
2.	21493003	Favqulodda vaziyatlar davlat nazorat inspektori
3.	26349006	Qutqaruvchi-psixolog
4.	54110009	Qutqaruvchi-feldsher
5.	33594003	Qidiruv-qutqaruv guruhi boshlig’i
6.	54110004	Qutqaruv Smena boshlig’i
7.	33594005	Qutqaruv guruhi boshlig’i
8.	33594006	Qutqaruv qismi boshlig’i
9.	33594008	Suvda qutqaruv guruhi boshlig’i
10.	33594009	Tog’da qutqaruv guruhi boshlig’i
11.	54110006	Qutqaruvchi-alloqachi
12.	54110008	Qutqaruvchi-biolog
13.	54110012	Qutqaruvchi-kimyogar
14.	54110013	Qutqaruvchi-kinolog
15.	54110014	Qutqaruvchi-yo’riqchi
16.	54110003	Navbatchi dispetcher
17.	54110005	Qutqaruvchi
18.	54110007	Qutqaruvchi-alpinist
19.	54110010	Qutqaruvchi-g’avvos
20.	54110011	Qutqaruvchi-haydovchi
21.	54110015	Qutqaruvchi-yong’in o’chiruvchi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma’lumot

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan lavozim (kasb)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1	2	11	2025-yil, dekabr
2	3	10	2026-yil, dekabr

6.Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
1	1	Favqulodda vaziyatlarning asosiy turlari (yong'in, zilzila, suv toshqini va boshqalar) haqida umumiy tushuncha; Shaxsiy va jamoaviy xavfsizlik qoidalarining asoslari; Favqulodda vaziyatlarda xatti-harakatlarning oddiy tartibi va signal turlari	Ko'rsatma va buyruqlarga muvofiq oddiy vazifalarni bajarish; Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish; Xavfli hududdan xavfsiz chiqish va boshqalarga ko'maklashish Favqulodda vaziyatlarda tartib va intizomga rioya qilish	O'ziga biriktirilgan oddiy vazifalar uchun javobgar bo'lish; Bevosita rahbar nazorati ostida faoliyat yuritish; Mustaqillik darajasi cheklangan, barcha harakatlar ko'rsatma asosida amalga oshirish	
2	2	Favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari; Qutqaruv va birlamchi yordam ko'rsatishning asosiy usullari; Maxsus asbob-uskunalar va texnikalardan foydalanish qoidalari	Standart vaziyatlarda mustaqil ravishda vazifalarni bajarish; Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish (oddiy jarohatlar, hushdan ketish holatlari); Jamoa tarkibida muvofiqlashtirilgan holda ishlash	O'z faoliyati natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni his etish; Standart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lish; Murakkab yoki noodatiy holatlarda rahbar ko'rsatmasiga tayangan holda ish yuritish	

3	3	Tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish usullari. Mehnat muhofazasi qoidalari Qutqaruv jarayonlarida asosiy texnika va usullari hamda xavfsizlik qoidalari; Qutqaruv uskunalaridan foydalanish tartibi Xizmat faoliyatiga tegishli murakkab texnikalar va amaliyot strategiyalari; Alpinistlik asbob-uskunalaridan va maxsus texnikalardan foydalanish usullari; Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularga qarshi harakat taktikalari; Yong'in turlari va ularning xususiyatlari, o'chirish usullari va vositalaridan foydalanish metodikalari; Suv ostidagi xavfsizlik qoidalari; Suv ostida ishlashning asosiy qoidalari; Suvdagi favqulodda vaziyatlarda harakat qilish qoidalari	Favqulodda vaziyatlarda ish sharoitlarini hisobga olgan holda harakat qilish; Qutqaruv uskunalari samarali foydalanish va qo'llash; Asosiy xavfsizlik choralariga, o'z sog'lig'iga, shuningdek funksional vazifalarni bajarishda boshqalarning salomatligi va xavfsizligiga rioya qilish; Balandlikda va qiyin sharoitlarda qutqaruv ishlarini olib borish; Yong'inga qarshi qurilmalar va uskunar bilan ishlash Qutqaruv jarayonlarini monitoring va tahlil qilish; Suvda qutqaruv ishlarida amaliy va nazariy ko'nikmasiga ega bo'lish hamda jismonan sog'lom bo'lish, suv ostida to'g'ri va xavfsiz harakat qilish	Murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish; Ish natijasini oldindan ko'ra bilish va shunga ko'ra o'z harakatini boshqarish; Qo'yilgan maqsadni hal qilish uchun bajarish zarur bo'lgan vazifalarni belgilash; Boshqa qutqaruvchilarning nazoratida vazifalarni bajarish; Xavfsizlikni ta'minlash va xavfli holatlarda uskuna va qurilmalarni ishlatish; Murakkab sharoitlarda qarorlar qabul qilish va xavfli vaziyatlarda samarali harakat qilish; Qutqaruv jarayonlarida mustaqil ravishda qutqaruv operatsiyalarini olib borish; Qutqaruvchi yong'in o'chiruvchi mustaqil ravishda yong'in o'chirish operatsiyalarini tashkil qilish va amalga oshirish	84.25. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat 54110003 Navbatchi – dispetcher 54110005 Qutqaruvchi 54110007 Qutqaruvchi – alpinist 54110010 Qutqaruvchi –g'avvos 54110011 Qutqaruvchi – haydovchi 54110015 Qutqaruvchi –yong'in o'chiruvchi
---	---	---	--	--	--

4	4	Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli nazariy va amaliy bilimlar; Boshqaruvning nazariyasi asoslari; Favqulodda vaziyatlarni boshqarish, yong'in o'chirish va qutqaruv ishlari nazariyasi; Qutqaruv jarayonlarida xavfsizlik choralari ta'minlash usullari; Texnikalarni xavfsiz boshqarish usullari va xavfsizlik qoidalari; Qutqaruv ishlarini amalga oshirish qoidalari; Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish tartiblari; Itlarni o'rgatish va tayyorlash metodikasi; Qutqaruv ishlarida itlardan foydalanish usullari; Kimyoviy va biologik xavf turlari; Kimyoviy va biologik moddalarni aniqlash usullari Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfektsiya asoslari; Qutqaruv jarayonlarida aloqa tizimlarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar	Qutqaruv ishlarini samarali tashkil qilish va jamoa a'zolariga yordam berish Jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash; Qutqaruv qismi faoliyatini rejalashtirish va boshqarish, jamoaga rahbarlik qilish; Qutqaruv ishlarini boshqarish; Qutqaruv jarayonini kuzatib borish va yo'l qo'yilgan xatolarni tezda aniqlash; Yo'riqlarni aniq va tushunarli yetkazish; Yo'riqlar berish orqali guruhning samarali harakatini ta'minlash; Suvda qutqaruv ishlarini olib borish; Itlar bilan samarali ishlash va ularni tarbiyalash; Kimyoviy va biologik moddalarni aniqlash; Kimyoviy va biologik moddalarni zararsizlantirish va tozalash; Shaxsiy himoya vositalari bilan ishlash; Axborotni boshqaruv punktiga va tegishli	O'z jamoasiga rahbarlik qilish, strategik rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish Doimiy o'zining malakalarini mustahkamlash; Xavfli vaziyatlarda qaror qabul qilish; Muammolarni aniqlash va texnik yo'llar bilan ularni bartaraf etish; Murakkab vaziyatlarda qarorlar qilish; Qutqaruv ishlarini samarali o'tkazishga mas'ul bo'lish; Evakuatsiya jarayonlarini samarali tashkil qilish va xavfsizlikni ta'minlash; Qutqaruvchi guruh a'zolariga aniq va tushunarli yo'riqlar berish; Qutqaruv ishlari jarayonida guruh faoliyatini mustaqil boshqarish; Texnika va maxsus texnikalarni boshqarish,	84.25. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat 33594003 Qidiruv – qutqaruv guruhi boshlig'i 33594005 Qutqaruv guruhi boshlig'i 33594006 Qutqaruv qismi boshlig'i 33594008 Suvda qutqaruv guruhi boshlig'i 33594009 Tog'da qutqaruv guruhi boshlig'i 54110004 Qutqaruv smena boshlig'i 54110006 Qutqaruvchi – aloqachi 54110008 Qutqaruvchi – biolog 54110012 Qutqaruvchi – kimyogar 54110013 Qutqaruvchi – kinolog 54110014 Qutqaruvchi – yo'riqchi
---	---	---	---	--	--

			jamoalarga tez va aniq tarzda yetkazish	ularni xavfsiz va samarali ishlatish; Qutqaruv guruhlarini o'rtasida tez va aniq aloqa o'rnatish;	
5	5	Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish asoslari; Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi; Tibbiy jihozlar va dori vositalaridan foydalanish qoidalari; Xavfni bartaraf etish usullari va himoya choralari; Epidemiyalar va biologik xavf paytida harakat qilish tadbirlari	Jabrlanuvchilarning holatini baholash va ahvolini nazorat qilish; Qutqaruv vaqtida kerakli tibbiy dori vositalarini ishlatish; Jabrlanuvchilarga favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordamni berish; Qon ketishni to'xtatish, jarohatni bintlash, shina qo'yish	Jabrlanuvchilarga favqulodda vaziyatlarda tez, to'g'ri va samarali birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga olish; Qutqaruv va tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida mustaqil qarorlar qabul qilish, vaziyatni baholash hamda harakatlarni muvofiqlashtirish	84.25. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat 54110009 Qutqaruvchi – feldsher
6	6	Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish taktikalari; Favqulodda vaziyatlarni nazorat qilish va bartaraf etish sohasidagi qonunlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar; Psixologiya va stressni boshqarish nazariyasi; Qutqaruvchilar va jabrlanuvchilar bilan muloqot usullari;	Kasbiy faoliyat sohasidagi keng ko'lamli amaliy vazifalarni yechish; Profilaktik tadbirlarni samaradorligini oshirish, tekshirish va baholash; Xavfsizlik tadbirlarini tashkil qilish va nazorat qilish; Qutqaruv jarayonlarida xavfsizlik va faoliyatni samarali tashkil qilish;	Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha ishlarni tashkil etish va strategik rejalarni amalga oshirish; Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan davrda mas'uliyatni talab qiluvchi, faoliyatning murakkab texnik va professional turlarini boshqarish;	84.25. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat 21331010 Radiatsion, kimyoviy va tibbiy biologik muhofazasi guruhi boshlig'i 21493003 Favqulodda vaziyatlar davlat nazorat inspektori 26349006 Qutqaruvchi – psixolog

		Radiatsiya, kimyo va biologiya sohalari asoslari; Himoya vositalari va texnologiyalari	Jabrlanuvchilar va qutqaruvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash; Qidiruv operatsiyalarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish; Jamoani boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash; RKTb xavfsizlik choralari amalga oshirish; Himoya vositalari va texnikani boshqarish	Kuch va vositalarni jangovar shayligini ta'minlash, quyilgan maqsadni hal qilish uchun bajarish zarur bo'lgan vazifalarni mustaqil belgilash; Muammolarni aniqlash va ularni tezkor hal qilish; Qutqaruv jarayonida psixologik yordam ko'rsatish va stress holatlarida qaror qabul qilish; RKTb muhofazasi choralarining to'liq mustaqil tashkil etish va nazorat qilish; Qutqaruv operatsiyalarini va jamoani mustaqil boshqarish	
7	7	Favqulodda vaziyatlar sohasida milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, standartlar va protokollari; Murakkab va ko'p omilli favqulodda vaziyatlarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti;	Murakkab favqulodda vaziyatlarni tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish; Qutqaruv va favqulodda choralarni rejalashtirish hamda muvofiqlashtirish;	Keng ko'lamli va yuqori xavfli favqulodda vaziyatlar bo'yicha yakuniy qarorlar uchun javobgarlik; Yuqori darajadagi mustaqillikda faoliyat yuritish;	

		Xavflarni kompleks baholash, prognozlash va oldini olish metodologiyalari; Qutqaruv operatsiyalarini rejalashtirish, resurslarni boshqarish asoslari; Favqulodda vaziyatlarda strategik kommunikatsiya va idoralararo hamkorlik mexanizmlari	Ko'p tarmoqli jamoalar faoliyatini boshqarish va yetakchilik qilish; Xavf va oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan innovatsion yechimlarni ishlab chiqish; Favqulodda vaziyatlar bo'yicha hisobotlar, xulosalar va tavsiyalar tayyorlash	Tashkilot, hudud yoki tarmoq miqyosida strategik natijalar uchun mas'ul bo'lish; Quyi malaka darajalaridagi xodimlar faoliyatini nazorat qilish va rivojlantirish	
8	8	Favqulodda vaziyatlar boshqaruvi bo'yicha ilg'or xalqaro tajriba, global tendensiyalar va innovatsion yondashuvlar; Milliy favqulodda vaziyatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyalari; Iqlim o'zgarishi, texnogen va biologik xavflarning uzoq muddatli ta'siri; Favqulodda vaziyatlar sohasida davlat siyosati, strategik rejalashtirish va boshqaruv modellari; Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish usullari	Milliy va tarmoqlararo favqulodda vaziyatlar siyosatini ishlab chiqish va takomillashtirish; Uzoq muddatli strategiyalar, konsepsiyalar va dasturlarni yaratish; Tizimli muammolarni aniqlash va kompleks yechimlar ishlab chiqish; Xalqaro tashkilotlar, donorlar va ekspertlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish; Ilmiy-tahliliy hujjatlar, konseptual asoslar va normativ takliflar tayyorlash	Milliy darajadagi qarorlar va strategik yo'nalishlar uchun to'liq javobgarlik; Maksimal darajadagi mustaqillik va tashabbuskorlik; Favqulodda vaziyatlar sohasining barqaror rivoji va xavfsizligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish; Tizimni rivojlantirish, islohotlar va institutsional o'zgarishlarga rahbarlik qilish	

7. Tarmoqning funksional xaritasi

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi kasblar bo'yicha funksional xaritasi

MMR malaka darajasi	TMR malaka darajasi	84.25. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat					Tegishli kasblar
		54110 Qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchilar	21331 Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha professional-mutaxassisla	21493 Sanoat va texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi bo'yicha muhandislar	33594 Sanoat va ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi bo'yicha inspektorlari	26349 Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan psixologlar, b.g.k.	
6	6		Radiatsion, kimyoviy va tibbiy biologik muhofazasi guruhi	Favqulodda vaziyatlarda davlat nazorat inspektori		Qutqaruvchi psixolog	
5	5	Qutqaruvchi-feldsher					
4	4	Qutqaruv smena boshlig'i Qutqaruvchi yo'riqchi Qutqaruvchi-kinolog Qutqaruvchi biolog Qutqaruvchi kimyogar Qutqaruvchi-aloqachi			Qutqaruv guruh boshlig'i Tog'da qutqaruv guruhi boshlig'i Qidiruv-qutqaruv guruhi boshlig'i Suvda qutqaruv guruhi boshlig'i Qutqaruv qism boshlig'i		
3	3	Navbatchi dispatcher Qutqaruvchi-haydovchi Qutqaruvchi-alpinist Qutqaruvchi Qutqaruvchi-g'avvos Qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchi					

**8. Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot
(korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi boshlig'i	Inagamov Q.Q.
2	Xizmat va jangovar tayyorgarligini tashkil etish boshqarmasi bosh inspektori	Eshmatov B.M.
3	Maxsus qutqaruv kuchlar boshqarmasi katta ofitseri	Abdullayev N.A.
4	Ta'lim jarayonini tashkil etish boshqarmasi bosh inspektori	Jumanov U.N.
5	Radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza xizmati boshlig'i	Axmedov Sh.Y.
6	Tashkiliy shtat bo'limi bosh inspektori	Shokirov X.B.
7	Kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi bosh mutaxassisi, (kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha) Tarmoq kengash kotibi	Bekmuradov Sh.K.

Mazkur Tarmoq malaka ramkasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 7-yanvar 2026 yildagi 2-son yig'ilishida muhokama qilingan.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining 13-yanvar 2026-yildagi TMR – 010-son xulosasi.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va
bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi

